Uchinchi prinsip, ijod erkinligi hisoblanadi. Mazkur qonunning 7-moddasida kreativ iqtisodiyot ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligiga asoslanishiga ham izoh berilgan. Bunda e'tirof etilishicha, "Barcha shaxslar kreativ industriya sohalarini tanlashda va ularning bir yoki bir nechtasida faoliyat olib borishda, shuningdek kreativ mahsulot yaratishda erkindir". Ma'lumki, barcha sohalarida ijod erkinligi ta'minlangan. Bunda ham ijod erkinligi boshqa shaxslarning sha'ni, qadr-qimmatiga va ishchanlik obro'siga zarar yetkazishga, qonunga xilof xatti-harakatlarni amalga oshirishga undashga yoki targ'ib qilishga qaratilmasligi hamda ijtimoiy axloqqa zarar yetkazishga zid bo'lmasligi kerak.

To'rtinchi prinsip, tenglik bo'lib hisoblanadi. Kreativ iqtisodiyot sub'ektlari o'z faoliyatini amalga oshirishda, shu jumladan davlat tomonidan taqdim etiladigan qo'llab-quvvatlash choralari va infratuzilmadan foydalanishda tenglik to'liq ta'minlangan bo'lishi shart.

Beshinchi prinsip ham boshqa sohalar singari, kreativ mahsulotning huquqiy muhofaza qilinishni ta'minlashdan iboratdir. Kreativ mahsulot intellektual va ijodiy faoliyat natijasi bo'lib, bu ham qonunchilikka muvofiq muhofaza qilinadi.



Kreativ iqtisodiyot industriyasi, yoki ijodiy iqtisodiyot, iqtisodiy faoliyatning bir qismi bo'lib, u ijodiy faoliyat va insonning ijodiy qobiliyatlaridan foydalanish orqali yaratilgan tovarlar va xizmatlarni qamrab oladi. Bu sohaga asosan madaniyat, san'at, dizayn, musiqa, kino, adabiyot, reklamalar va boshqa ijodiy mahsulotlar kiradi. Kreativ iqtisodiyot, shuningdek, transport, telekommunikasiya, sun'iy intellekt, axborot texnologiyalari va onlayn platformalar kabi sohalarni qamrab oladi, bu esa ijodiy mahsulotlarni tarqatishda ham yangi imkoniyatlarni yaratadi.

Kreativ iqtisodiyot industriyasining asosiy yo'nalishlaridan biri ijodkorlik bo'lib, bunda yaratuvchilik nuqtai nazaridan fikrlash va yangi g'oyalarni amalga oshirish qobiliyati o'stiriladi va ishga solinadi. Shu tufayli zamonaviy texnologiyalar ijodiy mahsulotlarni yaratish, tarqatish va almashish jarayonlarini soddalashtirish bilan birgalikda ularni osonlashtiradi. Kreativ iqtisodiyot, xizmatlar va tovarlarni yaratishda yangi iqtisodiy modellarni tadqiq etish, yaxshilash va innovasiyalarni joriy etish uchun ham muhimdir. U butun dunyoda iqtisodiy o'sish va rivojlanish uchun yangi omillar manbasidir.

Endilikda bu iqtisodiyotning hayotimizga kiritib kelishi iqtisodiyotning mahsuloti faqat moddiy ne'matlardangina iborat bo'lmasdan, nomoddiy nematlarni ham qamrab oladi va ushbu ne'matlarning yaratilishi evaziga mamlakat iqtisodiyoti keskin rivojlanadi. "Xalq so'zi" gazetasida Nurbek Rizaevning bergan ma'lumotlariga ko'ra "2024 yakunidasun'iy intellekt bozori hajmi 298 mlrd. dollarni tashkil etishi kutilmoqda, hozirda esa 207 mlrd. dollarga teng. Ushbu raqamlar 2030 yilga borib taxminan 1,84 trli. etishi mumkin". Ushbu soha iqtisodiy tizimda juda serdromad bo'lib hisoblanadi. Bizning hisob-kitoblar bo'yicha uning daromadlilik darajasi 30-35 foizni tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 3 oktyabrda imzolangan "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi O'RQ-970-sonli qonunning 10-moddasida kreativ industriya sohalari faoliyatining ro'yxati berilgan. Ushbu yo'nalishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi. Bular tarkibiga "adabiy ijodni; amaliy san'at va hunarmandchilikni; arxitektura, loyihalashtirish va urbanistikani; audiovizual san'atni; ijrochilik san'atini; konsert-tomosha faoliyatini va ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etishni; moda va dizayn san'atini; muzeylar, badiiy galereyalar (ko'rgazmalar), axborot-kutubxona faoliyatini; nashriyot va matbaa sohasidagi ijodiy faoliyatni; ommaviy axborot vositalari sohasidagi va Internet jahon axborot tarmog'i orqali uzatish yo'li bilan amalga oshiriladigan ijodiy faoliyatni; prodyuserlik faoliyatini; raqamli texnologiyalar sohasidagi ijodiy faoliyatni; reklama sohasidagi ijodiy faoliyatni; san'at ashyolari va madaniy meros ob'ektlarini asrashga doir faoliyatni; tasviriy san'atni" kirishi ko'rsatib o'tilgan.

Kreativ industriya sohasidagi faoliyat yo'nalishlarini o'z ichiga oladigan yuqoridagi tushunchalarning har birining izohiga qisqacha to'xtalishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Kreativ industriya sohasidan biri adabiy ijod hisoblanadi. Ushbu ijodga insonning kreativ fikrlashini, ichki his-tuyug'larini, ijodkorlik qobiliyatlarini ifodalash usuli sifatida qaraladi. Uning mazmuni bir necha asosiy elementlarni qamrab oladi. Adabiy ijodning asosi mavzu va badiiy obrazlarini tashkil qiladi. Mavzu odamlarning hayoti, tabiat, muhabbat, jang, ijod, odamlar orasidagi o'zaro munosabatlardan ham ibori bo'lishi mumkin. Mazkur ijodda muallifning shaxsiy uslubi muhim rol o'ynaydi. Ustozlar orasida bilimlarni, tajribani, his-tuyug'ulari alohida uslub bilan ifoda etilishi shakllanadi. Ushbu ijod orqali obrazlarni tasvirlay olish ham muhimdir. Bu obrazlar insonlarning ichki olami, xarakterlari, va ularning o'rtasidagi munosabatlari orqali ifoda etiladi.

Adabiy asarda so'zlarning ma'nolari, ularning o'zaro aloqalari muhim ahamiyatga ega. So'zlar va ifodalar orqali ijodkor o'z fikrlarini va hislarini ifodalaydi. Ushbu ijod estetik badiiylilikni ham o'z ichiga oladi. Uslub, obrazlar, metaforalarni to'g'ri tanlash – asarning eng muhim jihatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki adabiyotda ko'pincha hayotga, odamlar orasidagi munosabatlarga, qonun-qoida va prinsiplarga yangi falsafiy qarashlar orqali yondoshiladi.

Adabiy ijod tarixiy va madaniy omillarga ham uzviy bog'liq. Asarlarning mazmuni va tarkibi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy holatini ifoda etadi. Shu tariqa adabiy ijod odamlarning kreativligi, mo'ljallangan maqsadi va nazariy o'zgarishlarini ifodalash uchun ajralmas vosita hisoblanadi.

Kreativ iqtisodiyot industriyasi tarkibida amaliy san'at va hunarmandchilikning ham o'rni beqiyos. Bu umumiy san'at ichida, o'ziga xos bo'lib, insonning tashqi muhitiga estetik va funksional xususiyatlarni kiritishga yo'naltirilgan ijodiy faoliyat turi sifatida namoyon bo'ladi. Uning mazmuni insonning ijodiy faoliyatini, o'zi yaratgan buyumlari va asarlari orqali jamiyatga xizmat qilishni o'z ichiga oladi.

Amaliy san'atda yog'och, metall, keramika, mato kabi moddalardan ma'lum hunarmandchilik usullari bilan yaratilgan buyumlar berilgan estetik qimmatni qabul qilishi muhim. Har bir amaliy san'at asari, shu jumladan hunarmandchilik mahsuloti ham, muayyan ijtimoiy funksiyani bajaradi. Shu ishlar orqali hunarmandlar o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini ommaga chiqarish, innovasion va original echimlarni izlash orqali yaratuvchi loyihalarini amalga oshirishadi.

Amaliy san'at va hunarmandchilik o'ziga xos xususiyatlaridan biri, bular ko'pincha belgilamlangan etnik va madaniy an'analarni ifodalaydi. Ushbu asarlar insonlarning ruxiyati, tarixiy va madaniy merosini aks ettirganligi uchun ham qimmatlidir. Ma'lumki, hunarmandchilik sohasida yuqori texnik malaka talab etiladi. Mahsulotlarni yaratishda materiallarni o'zgartirish va qayta ishlash uchun mukammal usullarni bilish kerak. Shu tufayli bu ham



innovasion omillarni qo'llagan holda asta sekinlik bilan avtomatlashtirilgan texnologiyalarni va sun'iy intellekdan keng foydalanishni yo'lga qo'ymoqda. Pirovardida, amaliy san'at va hunarmandchilik jamiyatni estetik jihatdan namoyish qilish, madaniy merosni saqlash, badiiy manzaralarni yaratish va ularni sotish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Kreativ iqtisodiyot industriyasiga audiovizual san'atni, ijrochilik san'atini, tasviriy san'atni, moda va dizayn san'ati kabilar ham kiradi. Bularning hammasi insonning ijodi bilan bog'liq. Bunda yo'q narsadan faqat ijodiy xizmat ko'rsatish orqali mablag' topish mumkin. Masalan, milliy to'ylarimizda odamlarga ta'om berish bilan birga, musiqa san'atini ham taqdim etadi. Qorin to'ydirish uchun qancha ta'om iste'mol qilsangiz, o'shancha mablag'ni san'atkorning qo'shig'iga sarflash mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, insonning ehtiyoji faqat moddiy ne'matlar bilangina emas, balki nomoddiy ne'matlarga ham qondilishi lozim ekan. Demak, kreativ iqtisodiyot shunday iqtisodiyot ekanki, bir vaqtning o'zida insonlarning moddiy ehtiyoji bilan birga neomoddiy ehtiyojlarini qondirishga ham xizmat qilar ekan.

Bugungi kunda shunday innovasion texnologiyalar paydo bo'lmoqdaki, insoniyatning hayot tarzini mutlaqo yangi sifat bosqichiga olib chiqmoqda. Bulardan biri kreativ iqtisodiyotning hayotimizga kirib kelishi bilan bog'liq bo'lmoqda. Mazkur iqtisodiyotning bir yo'nalishi "Kreativ iqtisodiyot to'g'risidagi" qonunga asosan kreativ industriyaga bag'ishlangan. Buning yuqorida ko'rganimizdek, bir qancha yo'nalishlari mavjud.

Kreativ industriyasi sohasining asosiy yo'nalishlaridan biri arxitektura, loyihalashtirish va urbanizatsiya hisoblanadi. Arxitektura kreativ industriya sifatida, insonlar iqtisodiyotini va madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. U kreativ industriyaning o'ziga xos bir qismi bo'lib, o'zining estetik va funksional xususiyatlari bilan insonlarning takomillashuviga yordam beradi.

Arxitekturaning kreativ industriyaga kirishining bir qancha asosiy sabablari bor. Chunki arxitektura yordamida yaratilgan hududlarning vizual ko'rinishiga ta'sir etadi. Inshootlarning estetik jihatlari odamlarning hissiyotlariga, o'ylashlariga va ijodkorligiga ta'sir qilshi bilan birga ushbu yo'nalishda u insonlarga estetik zavq ham beradi. Ma'lumki, arxitektura innovasiyalar va yangi texnologiyalarni joriy qilish orqali rivojlanadi. Yangicha materiallar va qurilish usullari insonlarning yangi ijodkorlik imkoniyatlarini ochadi. Shu jihatdan jamiyatning aniq o'zgarishlarini, tarixiy xususiyatlarini ham o'zida aks ettiradi. Xullas, arxitekturaning iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatlarga ta'siri uning funksional xususanliklari bilan ham bog'liqdir.

Shu bilan birga, arxitekturadagi kreativlik inshootlarning jamiyat hayotiga ta'sirini va bularning odamlar uchun yaratilganligini, bu boradagi imkoniyatlarni belgilaydi. Demak, kreativ industriyaning arxitektura yo'nalishi jamiyatning ijodiy, estetik va funksional rivojlanishi uchun muhim omillardan biridir.

Kreativ iqtisodiyot industriyasining loyihalashtirish bilan bog'liq yo'nalishlari belgilangan maqsadlarga erishish uchun dastur va takliflarni ishlab chiqish jarayoni bilan bog'liqdir. Ushbu jarayonda loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslar, vaqt, budget va ehtiyojlar aniqlanadi, ishlanmalarni tashkil etish, ularni ijro etish va nazorat qilish hamda yakuniy natijalarni baholash tezkor ravishda amalga oshiriladi.

Loyihalashtirishning asosiy bosqichlari bevosita maqsadni belgilashdan boshlanadi. Bunda loyihaning asosiy vazifasi va ko'zda tutilgan natijalari aniqlanadi. Shu bilan birga, loyihada ishtirok etuvchi tomonlar, unga qo'yilgan talablar, resurslar va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar tahlil qilinadi. Natijada ishlanmalarni tartibli tashkil etish va loyihani o'z yo'nalishi hamda maqsadga muvofiqligini ta'minlovchi boshqaruv mexanizmlari ishlab chiqiladi. Shuningdek, boshqaruv qarorlarini ijro etish jarayonida loyihaning amalga oshirilganligini ta'minlovchi amaliy ishlarning natijalari ham baholanadi.

Loyihaning yakuniy natijalari tahlil qilinganda, asosiy xulosalar va ular asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar zamon talablari asosida takomillashtiriladi. Bu esa loyihani uning asosiy maqsadlariga muvofiqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday loyihalashtirish yondashuvi har qanday sohada, xususan, biznes, qurilish, axborot texnologiyalari, ta'lim, ilmiy tadqiqot va boshqa sohalarida samarali hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, loyihalashtirish bugungi kunda kreativ industriya tarkibiga kiritilmagan. Biroq ushbu yo'nalish kreativ industriyaning shakllanishida tayanch asoslardan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu sababli loyihalashtirish jarayonini kreativ industriya tarkibiga kiritish maqsadga muvofiqdir.

"Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi qonunga muvofiq, kreativ industriyaga konsert-tomosha faoliyati va ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etish ham kiritilgan. Konsert-tomosha faoliyati kreativ industriyaning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning mazmuni orqali bir qancha muhim jihatlarni tahlil qilish mumkin. Bunday tadbirlar ijodkorlikni namoyon etish, san'atning turli janrlarini ommalashtirish, shuningdek, ijodiy ishlanmalarni auditoriyaga taqdim etish imkonini beradi.

Konsertlar va tomoshalar orqali musiqa, raqs, teatr, vizual san'at va boshqa yo'nalishlarda ijodkorlar o'z iste'dodlarini keng ommaga namoyon qiladilar. Ushbu faoliyat natijasida yaratilgan mahsulotlar ma'naviy qadriyat bo'lishi bilan birga, iqtisodiy jihatdan ham qiymatga ega bo'lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotida alohida o'rin egallaydi.

Kreativ industriyaning mazkur yo'nalishi milliy madaniyatni va qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni rivojlantirish hamda global madaniy meros bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Konsert-tomosha milliylik



bilan birga xalqaro madaniyatni shakllantirishda, urf-odatlar va an'analarni asrashda ham muhim rol o'ynaydi. Shu tariqa, mazkur faoliyat turmush tarzining madaniy asosi bo'lib, insonlar hayotida madaniyatning tutgan o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat – kreativ industriya nomoddiy xizmatlar evaziga iqtisodiy imkoniyatlarni ham mustahkamlanib boradi. Konsertlar va tomoshalar hudud iqtisodiyoti uchun manfaatli bo'lishi bilan birga, boshqa sohalarning, xususan, turizmni, ovqatlanish, savdo kabi sohalarning rivojlanishiga ham ishtirok etadi. Ushbu xizmatlar evaziga ish beruvchilar, marketing agentliklari, mualliflar va ijrochilar uchun ham yangi biznes imkoniyatlari yaratadi. Konsert-tomoshalar jamiyatni birlashtirish, odamlarning munosabatlarini yaxshilash va hamjihatlik hissini yaratishga ham yordam beradi. Bu faoliyat odamlarni birga yig'ish va umumiy qaror qabul qilish uchun platforma vazifasini bajaradi.

Konsert-tomosha faoliyati sohaga oid texnologiyalarning ham takomillashib borishiga turtki beradi. Ushbu jarayonda onlayn do'konlar, moliyaviy platformalar va marketing strategiyalari kabilar kreativ industriyaning rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shu sababli, konsert-tomosha faoliyati kreativ industriyada muhim rol o'ynaydi, chunki u ijodiy izlanishlarni, madaniyatni, iqtisodiy o'sishni va jamiyatni birlashtirishni rag'batlantirib borishga ham katta hissa qo'shib boradi.

Kreativ industriyaning bir yo'nalishi muzeylar, badiiy galereyalar (ko'rgazmalar) bilan ham uzviy bog'liq. Muzeylar kreativ industriya sifatida bir necha muhim xususiyatlarga ega. Bulardan biri dunyo arxi va madaniyatini saqlashga qaratilgan. Muzeylar odamlar va jamiyatlar uchun muhim tarixiy va madaniy manbalarni saqlash va taqdim etish vazifasini bajaradi. Bu bilan bugungi odamlar o'tmishini va qadriyatlarini anglab etish uchun tegishli axborotlarga ega bo'ladi. Bu axborotlar juda katta boylik bo'lib, asrlar osha saqlanib, boyib boradi. Shu jihatdan muzeylarning ahamiyati juda katta.

Kreativ industriyaning bir qismi tarixiy yodgorliklar bilan birga bevosita yangilik va innovsion jarayonlar bilan ham hamohang sifatida faoliyat ko'rsatadi. Chunki muzeylar ham yangi texnologiyalar, interaktiv namoyishlar va multimedia vositalaridan foydalanib, o'qish va tushunish jarayonini yaxshilashga, ya'ni engillashtirishga xizmat qiladi.

Muzeylarda kreativ ta'limning ham mavjudligi va uning muhimligidan dalolat beradi. Muzeylar ta'lim sohasida kreativ yondashuvlarni rivojlantirish uchun platforma vazifasini bajaradi. Ularda master-klaslar, seminarlar va ta'lim dasturlari tashkil qilinsa, ular orqali kreativ fikrlashni rag'batlantirishga ham erishiladi. Bunda ijodkorlar bilan hamkorlik masalasi ham muhim bo'g'inlardan biridir. Kreativ industriyada muzeylar ko'p vaqtdan buyon ijodkorlar, rassomlar, san'atchilar va dizaynerlar bilan hamkorlikda ishlashi, novator loyihalarni yaratishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Turli ko'rgazmalar va tadbirlar ham muzeylarda doimiylik va vaqtinchalik xarakterga ega bo'ladi. Bunda ko'rgazmalar, festivallar va boshqa madaniy tadbirlarni tashkil qilib, ijodiy mahsulotlarni jamoat e'tiboriga taqdim etishda ham muzeylarning o'ziga xos o'rnini bor. Muzeylar jamiyatda iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarni rag'batlantirish va kreativ muhitni yaratishga hissa qo'shish orqali rivojlanishga ijtimoiy jihatdan ta'sir ko'rsatadi.

Muzeylarning yana bir xususiyati, maqsadli auditoriyani shakllantirish va ularga moslashtirish imkoniyatlariga ham ega. Muzeylar kreativ industriyaning talablaridan kelib chiqib, turli maqsadli auditoriyalarga, ya'ni bolalar, kattalar, jahon sayyohlari va boshqalarga mos keladigan muhitni yaratadi. Bu xususiyatlar muzeylarning kreativ industriyadagi o'rnini mustahkamlaydi va ularni madaniy rivojlanishda muhim omil sifatida faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

Kreativ industriyaning yana bir yo'nalishi axborot-kutubxona faoliyati hisoblanadi. Bu faoliyat ko'plab jarayonlarni va xizmatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu sohadagi asosiy yo'nalishlardan biri, ma'lumotlarni yig'ish va saqlashdan iborat. Axborot-kutubxona tashkilotlari kreativ industriya uchun muhim ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish va saqlash bilan shug'ullanadi. Bular jumlasiga hunarmandchilik, san'at, dizayn, reklama va boshqa sohalardagi ma'lumotlarni to'plash jarayonlarini qamrab olishida ham namoyon bo'ladi.

Kutubxonalar kreativ industriyadagi trendlarni va vaziyatni tushunish uchun axborot-resurslarni tahlil qilib, hunarmandlar va dizaynerlarga kerakli ma'lumotlarni taklif ham qiladi. Resurslarni tahlil qilish orqali turli tadqiqot va ilmiy faoliyatlar ham amalga oshiriladi. Kutubxona faoliyati aksariyat holda tadqiqotchilar, dizaynerlar va mualliflarga o'z ishlarini rivojlantirish va yangiliklarni qo'lga kiritishda ham ko'makchilik vazifasini bajaradi. Chunki odamlarning ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishi va ilmiy faoliyatni rivojlantirishga ham asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Kutubxonalar kreativ industriyadagi o'qish jarayonlarini rag'batlantirish uchun ko'rgazmalar, seminarlar va master-klasslarni tashkillashtirishda ham muhim yo'nalish hisoblanadi. Chunki turli ijodiy taqdimotlar, ko'rgazmalar va seminarlar tashkil qilish orqali ushbu maqsadlarning to'liq amalga oshiradi. Hozirgi raqamlashtirish sharoitidan kelib chiqib, axborot-kutubxona faoliyatida elektron resurslarni yaratish va raqamlashtirish muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Bu kreativ kontentni onlayn platformalarda tarqatishga yordam beradi.

Kutubxonalar kreativ industriyasida hamkorlik yo'nalishi ham e'tiborga molik masalalardan biridir. Chunki kutubxona boshqa tashkilotlar, san'at galereyalari, universitetlar (oliy o'quv yurtlari) va tadqiqot markazlari bilan



hamkorlikni aynan elektron aloqalar bo'yicha ham amalga oshirish imkoniyatlariga ega bo'lib bormoqda. Shu orqali kutubxonalar yangi hunarmandlar va ijodkorlarga axborot-resurslarni, turli ma'lumotlarni taqdim etishlari orqali ularni rag'batlantirishga ham erishib kelmoqda. Bunday rag'batlantirish faoliyati orqali kutubxonalar kreativ industriyasi tufayli mualliflik huquqlari va intellektual mol-mulk huquqlari asosida ilmiy ixtirolarni muhokama qilish jarayonlarida ham ishtirok etish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, kreativ industriyadagi axborot-kutubxona faoliyati aholining ijodi va ilmiy manbalar bilan ta'minlashda juda muxim rol o'ynaydi. Chunki u ijodkorlarni rag'batlantirish va ularni kerakli ma'lumot bilan ta'minlashda katta o'ringa ega. Zero, kutubxonalarda barcha badiiy, ilmiy, ilmiy ommabop adabiyotlar saqlanadi va o'quvchilarni kerak paytda ta'minlab turadi. Bularning yana bir ahamiyatli jihati tariximiz ham, qadriyatlarimiz ham, ilmiy va badiiy asarlarimiz ham aynan shu maskanda to'planib, saqlanib boriladi.

Ko'rinib turibdiki, kreativ iqtisodiyot industriyasining barcha turlari va ularning barqaror yo'nalishlari insoniyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. Shu yo'l bilan aholi farovonligini nafaqat moddiy ne'matlar bilan, balki ma'naviy (nomoddiy) ne'matlar bilan ham oshirish orqali mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish imkoniyatlariga ham ega. Demak kreativ iqtisodiyot iqtisodiyotning bir turi sifatida muntazam ravishda rivojlanib boradi va shu yo'nalishda mamlakatimiz iqtisodiyotini ham rivojlantiradi.

"Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi qonunda kreativ industriyaning bir qator yo'nalishlari keltirildi. Ushbu yo'nalishlardan biri nashriyot va matbaa sohasidagi ijodiy faoliyatlardan iborat ekanligi ham ta'kidlangan. Chunki, nashriyot va matbaa sohasidagi ijodiy faoliyatlar kreativ industriyaning muhim bir qismi sifatida maydonga chiqqan. Ularning asosiy xususiyatlari va funksiyalari ma'lum bir elementlarni o'z ichiga oladi. Bulardan muhimlaridan biri ijodiy kontent yaratishdan iboratdir. Nashriyot va matbaa sohasi yozuvchilar, muharrirlar, dizaynerlar va boshqa ijodkorlar tomonidan ijodiy kontent (kitoblar, jurnallar, gazetalar, bukletlar va boshqalar) yaratish bilan bog'liq.

Elektron nashrlarning paydo bo'lishi, raqamli formatlar va internet platformalari orqali matbaa sohasini yanada rivojlantirish va imkoniyatlarni kengaytirish uchun zamin yaratdi. Bunday ilg'or zamonaviy texnologiyalar orqali shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda mamlakatimiz taraqqiyotini ham ta'minlash imkonini beradi. Ushbu jarayonda o'z ish jarayonida nashriyotlar, kitob do'konlari va matbaa korxonalari ijodiy ishlarni samarali targ'ib qilish uchun marketing va reklama strategiyalarini ishlab chiqish orqali marketing strategiyasini ham muvoffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatlariga ega bo'lmoqda.

Nashriyot va matbaa sohasida filmlar, multfilmlar, elektron o'yinlar va boshqa ijodiy sohalar bilan ko'p sohali hamkorliklarni rivojlantirish imkoniyati ham yaratilmoqda. Shu yo'nalishda ijodiy ijtimoiy platforma orqali ijodkorlarni, muxlislarni va o'quvchilarni birlashtirgan ko'pqirrali ijodiy jamiyatlar platformasi ham shakllanadi. Kreativ industriya mahsulotlarining tarixiy, madaniy va ijtimoiy samaradorligi bilan birga iqtisodiy samaradorligi ham mavjud. Bu ijodiy mahsulotlar (kitoblar, jurnallar, matnlar) sotishidan olingan daromadlar evaziga shakllanadi.

Nashriyot va matbaa sohasida ijodkorlar huquqi, mualliflik huquqi va lisenziya siyosati mavjud. Bunda muhim hujjatlardan biri mualliflik huquqi bo'lib hisoblanadi. Bu elementlar kreativ industriyaning rivojlanishiga, aniqlashuviga va mahalliy hamda global miqyosda samarali faoliyat olib borilishiga xizmat qiladi.

Kreativ industriyaning yana bir yo'nalishi ommaviy axborot vositalari sohasidagi ishlardan iborat. Bunda internet orqali jahon axborot tarmog'iga ulanish yo'li bilan amalga oshiriladigan ijodiy faoliyat asosiy o'ringa ega. Chunki ommaviy axborot vositalari kreativ industriyaning muhim bir qismi hisoblanadi. Ularning kreativ industriya ekanligi bir qator omillarda namoyon bo'ladi. Bularga kontent yaratishni misol keltirish mumkin. Chunki, ommaviy axborot vositalarida (televidenie, radio, internet-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar) original va yangi kontent yaratish imkoniyati mavjud. Bu kontent yaratish jarayonida ijodiy yondashuv, dizayn, ssenariy yaratish, videolashtirish va boshqa kreativ jarayonlarning ishtirokini o'z ichiga oladi.

Kontentlar har xil formatlarda yaratiladi. Ommaviy axborot vositalari turli formatlarda, masalan, vizual (foto, video), audio (radio shou, podkastlar), matn (maqolalar, xabarlar) tarzda kontent taqdim etishadi, bu ularning ijodiy salohiyatini ko'rsatadi. Ommaviy axborot vositalarida harakat qiladigan jurnalistlar, ssenaristlar, prodyuserlar, dizaynyorlar va boshqa ijodkorlar ijodiy jamoa kreativ industriyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Ular birgalikda ishlab chiqargan kontent va loyihalar kreativ ma'noga ega bo'ladi.

Ommaviy axborot vositalari bilan kreativ loyihalar orasida ijtimoiy mavzular, madaniyatni rivojlantirish, san'at va ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ish olib boriladi. Ushbu vositalar madaniyat va ijodning tarqalishida ijtimoiy hamjihatlikka mos funksiyaga ega. Ommaviy axborot vositalari raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish orqali yangi ijodiy imkoniyatlarni yaratadi, masalan, virtual reallik, interaktiv kontent va identifikatsiya usullari kabi texnologiyalarning integratsiyasini ham yaratadi.

Kreativ industriyada ommaviy axborot vositalari bozorni yaratish, brendlarni rivojlantirish va reklama bilan bog'liq loyihalarda ishtirok etish orqali ijodiy samaradorlikni oshirish uchun paydevor yaratadi va shu bozorda raqobat muhitini ham yaratadi. Ko'rinib turibdiki, bularning bari ommaviy axborot vositalarining kreativ industriyani tashkil etishdagi rolini namoyon qiladi.



Kreativ industriyaning raqamli texnologiyalar sohasidagi ijodiy faoliyati zamonaviy usullardan biridir. Raqamli texnologiyalar sohasidagi ijodiy faoliyat – bu raqamli formatda yaratilgan, yangicha yaqinlashuvlar yoki echimlar paydo qilishga qaratilgan faoliyatlar jamlanmasidan iborat. Ushbu sohada ijodiy faoliyat har xil shakllarda bo'lishi mumkin. Bular jumlasiga dizaynni kiritish mumkin. Bular grafik dizayn, animasiya, veb-dizayn, UX/UI dizayn va boshqalardan iborat bo'ladi. Yana bir yo'nalish multimediya bo'lib, bular videolar, podkastlar, fotografiyalar va audiokontentlardan iborat.

Raqamli texnologiyalar sohasidagi ijodiy faoliyatining bir yo'nalishi dasturlash bo'lib, bunda novatorlik dasturlari, mobil ilovalar, veb saytlar yoki ijodiy algoritmlar ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan. Buning yo'nalishlaridan biri, raqamli san'at bo'lib hisoblanadi. Bunga fotoroliklarni qilish, raqamli tasvirlar yoki interaktiv san'at kabilarni kiritish mumkin. Shu yo'nalishda o'yinlar yaratish ham mavjud bo'lib, bunda turli videoo'yinlar, interaktiv ssenariylar ishlab chiqilishi ham ko'zda tutilgan.

Shunday qilib, ijodiy faoliyat raqamli texnologiyalar orqali odamlarga yangi tajribalar, bilimlar va echimlar berishga yordam beradi. U shuningdek, yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratish, bozorni yangilash va jamiyatni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Chunki ushbu jarayonda nomoddiy ne'matlar yaratish orqali katta mablag' ishlash imkoniyatlarini ham yaratish mumkin.

Reklama sohasidagi ijodiy faoliyat

Kreativ industriyaning muhim yo'nalishlaridan biri bu – reklama sohasidagi ijodiy faoliyatdir. Reklama – kreativ iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, iqtisodiy o'zgarishlar, ijodiy faoliyat va samarali innovatsiyalarning vujudga kelishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Mazkur sohada ijodkorlik reklama strategiyalarini shakllantirish, branding, vizual kontent, animatsiya, videoroliklar, grafik dizayn va o'yinli konstruksiyalar orqali ifodalanadi.

Xususan, reklamada branding muhim yo'nalish sifatida e'tirof etiladi. U brendlarni identifikatsiya qilish, ularning bozorga ta'sirini oshirish va foydalanuvchi ongida mustahkam joylashishiga xizmat qiladi. Bugungi global bozorda brendlar o'rtasidagi kuchli raqobat reklamani yanada ijodiy va samarali yo'sinda olib borishni taqozo etmoqda.

Reklama kampaniyalari zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda, marketing strategiyalarining ajralmas bo'lagiga aylangan. Ijtimoiy tarmoqlar, interaktiv reklama vositalari, raqamli platformalarda yaratilgan kontentlar – ularning barchasi kreativ industriya rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Natijada, reklama orqali nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy ong shakllanishi va iste'molchilarning axloqiy-estetik qadriyatlariga ta'sir qilishga erishiladi.

San'at ashyolari va madaniy meros ob'ektlarini asrash faoliyati

Kreativ industriyaning yana bir dolzarb yo'nalishi bu – san'at ashyolari va madaniy meros ob'ektlarini asrashga qaratilgan faoliyatdir. Bu faoliyat muzeylar, galereyalar, ko'rgazmalar, madaniy tadbirlar orqali jamiyatning tarixiy-estetik boyligini saqlash, uni zamonaviy avlodga yetkazish va ijodiy rivojlanishga xizmat qilishga qaratilgan.

Madaniy merosni saqlash va ommalashtirish jarayoni, bir tomondan, milliy an'analarni qo'llab-quvvatlash, ikkinchi tomondan esa, turizm, kreativ ta'lim va texnologik innovatsiyalar sohalariga turtki beradi. Mazkur faoliyatlar kreativ industriyadagi boshqa yo'nalishlar – dizayn, san'at, raqamli madaniyat bilan uzviy integratsiyalashgan holda ishlaydi.

San'at ashyolarini asrash bilan bog'liq ishlar – nafaqat madaniyatni saqlash, balki iqtisodiy o'sish, jamiyatda estetik va intellektual muhitni rivojlantirish, xalqaro madaniy almashuvlarni kuchaytirish imkonini beradi. Bu borada amalga oshirilayotgan tashabbuslar kreativ industriyaning barqaror rivojlanishida asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida kreativ iqtisodiyotning mazmuni, ta'rifi, asosiy prinsiplari va uning sanoat turlari chuqur tahlil qilinib, quyidagi muhim xulosalar va amaliy takliflar ilgari surildi:

Kreativ iqtisodiyot fanini shakllantirish va ta'lim tizimiga joriy etish. "Kreativ iqtisodiyot" fanini mustaqil fan sifatida shakllantirish, uni oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga darslik asosida kiritish va amaliyotga tatbiq etish dolzarbdir. Shuningdek, ushbu fan asosida kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq, deb hisoblanadi.

Kreativ iqtisodiyotning statistik hisobotini shakllantirish. Mamlakat Yalpi ichki mahsuloti (YalM) va hududiy mahsulotlar tarkibida kreativ iqtisodiyotning ulushini alohida hisobga olish, tarmoqlar kesimida aniq statistik ko'rsatkichlarni ishlab chiqish va yuritish zarur.

Davlat va xususiy investitsiyalarni jalb qilish. Kreativ iqtisodiyotning rivojlanishi uchun davlat va xususiy sektor investitsiyalarini jalb etish, davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish, shu bilan birga raqamli



innovatsion texnologiyalar asosida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha aniq huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish lozim.

Dual ta'lim tizimini joriy etish. Mazkur sohani chuqur egallash uchun nazariya bilan amaliyotni uyg'unlashtiruvchi dual ta'lim modelini joriy qilish zarur. Bu orqali talabalar ijodiy va iqtisodiy ko'nikmalarni bevosita ishlab chiqarish muhitida shakllantirish imkoniga ega bo'ladi.

Xalqaro tajribalarni o'rganish va transfer qilish. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslangan holda, xalqaro hamkorlikda kreativ iqtisodiyot bo'yicha qo'shimcha ixtisoslashtirilgan o'quv dasturlari, ilmiy va amaliy qo'llanmalar, darsliklar yaratish va sohaga tatbiq etish zarur.

Kreativ iqtisodiyotning milliy iqtisodiy modelga tatbiq etilishi, u bo'yicha mutaxassislar tayyorlanishi va iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida e'tirof etilishi – mamlakatning barqaror rivojlanishiga, raqobatbardoshlik darajasining oshishiga, aholining farovonligiga va innovatsion salohiyatning kengayishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 3-oktabrda imzolangan "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi O'RQ-970-sonli Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 30-sentyabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2024-yil 30-sentyabrda ma'qullangan.
2. Pardaev M., Muhammedov M., Pardaev O. Iqtisodiyotning turlari va ta'riflari. <https://telegra.ph/I%D2%9Btisodiyotning-turlari-va-tariflari-07-08-2.2666>. 12.02. 7-avgust, 2024-yil.
3. Usmonov B. Nima uchun kreativ iqtisodiyot? "Xalq so'zi" Telegram sahifasi, 2024-yil 7-noyabr.
4. Sayfullaev M. Kreativ iqtisodiyot – barqaror rivojlanish garovi. https://uza.uz/uz/posts/kreativ-iqtisodiyot-barqaror-rivozhlanish-arovi_644945.
5. Abduraimova N. Kreativ industriya: kreativ mahsulot va xizmatlar bozori rivojlanadi. O'zA axborot agentligi. <https://uza.uz/category/business>.
6. Abduraimova N. Kreativ industriya: kreativ mahsulot va xizmatlar bozori rivojlanadi. <https://daryo.uz/>.
7. Durman M. O'zbekiston uchun ijodiy iqtisodiyot juda muhimligi va buning sabablari aytili. <https://daryo.uz/>.
8. Pardaev M. Kreativ iqtisodiyotning ta'rifi va prinsiplari. <https://telegra.ph/KREATIV-I%D2%9ATISODIYOTNING-TARIFI-VA-PRINCIPLARI-11-10>. SamTVR, MTRK, 2024-yil 10-noyabr. – 0,2 b.t.
9. Pardaev M. Kreativ industriya sohalari va ularning mazmuni. <https://telegra.ph/KREATIV-INDUSTRIYA-SO%D2%B2ALARI-VA-ULARNING-MAZMUNI-11-11>. SamTVR, MTRK, 2024-yil 11-noyabr. – 0,2 b.t.
10. Tuxliev I.S. O'zbekistonda kreativ turizmni rivojlantirish xususiyatlari. <https://telegra.ph/%D0%8EZBEKISTONDA-KREATIV-TURIZMNI-RIVOZHLANTIRISH-HUSUSIYATLARI-11-11>. SamTVR, MTRK, 2024-yil 11-noyabr. – 0,2 b.t.
11. Rizaev N. Yorqin kelajak uchun "Aqli" texnologiyalar. "Xalq so'zi" gazetasi, 2024-yil 31-oktyabr, 223-son, 1 va 4-betlar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>